O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor v.v.b.
_____ A.Berdibaev
«28» oktyabr 2026 y.

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura imtihon

D A S T U R I

NUKUS-2026

Tuzuvchilar: p.f.d (DSc), prof. Z.K. Kurbaniyazova
p.f.d (DSc), prof v.b. S.S. Tajbenova
p.f.f.d. (PhD), dots. N.M. Nagmetova

Taqrizchi: p.f.d (DSc), prof. A.Tilegenov

KIRISH

Hozirgi davrda boshlang‘ich ta’lim metodikasi sohasi pedagogik madaniyatni rivojlantirish, yangicha tafakkurni tarkib toptirish, kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fanidan ma’lumotga ega har bir talabgor, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilimlar va ko‘nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talablarini bilishlari lozim.

Ta’im va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi doirasida fanlarni o‘qitish metodikasi va fanga oid muammolarning umumiy o‘rta ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, sinfdan va maktabdan tashqari ta’limga oid pedagogik muammolar hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu ixtisoslik bo‘yicha bajarilgan dissertatsiya ishlari Respublikamız uzliksiz ta’lim tizimining rivojlanishiga muayyan hissa qo‘shishga qaratiladi.

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi sohasiga tegishli dissertatsiyalarda jamiyatning ijtimoiy-moddiy, ma’naviy–ma’rifiy faollik sohalaridagi o‘zgarishlar talablari asosida boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish mazmunini va metodikasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik asoslari, milliy dastur va davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish metodologiyasi, aniq fanlarni o‘qitish metodikasining tarixiy hamda zamonaviy mazmuni, metodlari, shakllari, vositalariga mo‘ljallangan ilmiy -nazariy, amaliy-metodik muammolari bilan bir qatorda fanning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar, imtihon savollarni o‘z ichiga olgan.

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi – bo‘yicha doktoranturaga topshiruvchilar uchun “Mutaxassislik” fanlaridan imtihon-dasturi 60110400 – Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan ixtisoslik fanlaridan: Ona tili o‘qitish metodikasi, Matematika va uni o‘qitish metodikasi, Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi, Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi, Tarbiya ishlar metodikasi fanlarini o‘z ichiga oladi.

ASOSIY QISM

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillari. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv-me’yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalari. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllarining umumiy tavsifi, ma’ruza turlari va ularga qo`yiladigan talablar uzluksiz; amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini o‘tkazish texnologiyasi; mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi; mutaxassislik fanlaridan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash metodikasi; bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta’minoti. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion-korporativ sheriklik asosida uzluksiz amaliyotni tashkil etish texnologiyasi, mutaxassislik fanlaridan o‘quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida talabalar (o‘quvchilar)ning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi. Nutqiy kompetensiyalarni (tinglab tushunish, gapirish) shakllantirish metodikasi. Oliy va o‘rta maxsus ta’limda fonetik, leksik va imlo kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Oliy va o‘rta maxsus ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. Oliy va o‘rta maxsus ta’limda geografiya (tabiatshunoslik)ni o‘qitish metodikasi. Uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim muammolari.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi: Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish tamoyillari, ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitishnining maqsadi va vazifalari. Til ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligini darslariga qo‘yiladigan talablar. Ularning turlari. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan metodlar. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ona tilidan Davlat ta’lim standarti va oquv dasturi mazmuni. Ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish usullari. Nutqiy kompetensiyalar va lingvistik kompetensiyalarga DTSda qo‘yiladigan talablar.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari. Ona tili to‘garagi, To‘garak, tanlov, badiiy kechalarni tashkil etish usullari.

Savod o‘rgatish metodikasi. Savod o‘rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o‘rgatishda qo‘llanadigan metodlar. Savod o‘rgatish jarayoni bosqichlari. Savod o‘rgatishda tayyorlov davri, bu bosqichdagi o‘qish va yozuv darslarining mavzulari hamda ish turlari. Savod o‘rgatishda asosiy davr, bu bosqichdagi o‘qish va yozuv darslarining mavzulari hamda ish turlari. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish. Savod o‘rgatishda mashq

turlari. Savod o‘rgatishda nutq o‘stirish. Savod o‘rgatish davrida boshlang‘ich yozuvga o‘rgatish. Yozuvga o‘rgatishning tashkiliy va gigenik shartlari. Yozuvga o‘rgatishda o‘quvchilar nutqini o‘stirish. Savod o‘rgatishda o‘qish va yozish darslari. Fonetika va grafika asoslarini o‘rgatish metodikasi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning ona tilini o‘zlashtirishida fonetika bilimining ahamiyati. O‘quvchilarda so‘zning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlang‘ich tasavvurini shakllantirish. O‘quvchilarda grammatika va so‘z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari. Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklar.

Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish metodikasi. Asos va qo‘shimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash. Lug‘at ustida ishlash metodikasi. So‘z ma'nosini tushuntirish metodikasi. Badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni o‘rganish bilan bog‘liq holda o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish yo‘llari. So‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi. Otni o‘rganish metodikasi. So‘z turkumlarining leksik va grammatik ma’nosi ustida ishlash. So‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi. Sifatni o‘rganish metodikasi. So‘z turkumlarining leksik va grammatik ma’nosi ustida ishlash. Sonni o‘rganish metodikasi. Olmoshni o‘qitish metodikasi. Fe’lni o‘rganish metodikasi.

Boshlang‘ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash metodikasi So‘z birikmasi va gap ustida ishlash. Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. O‘quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shart-sharoitlari. Boshlang‘ich sinflarda punktuatsiya elementlari va orfografiyani o‘rganish metodikasi. Kichik yoshdagi oquvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish. Boshlang‘ich sinflarda imloga o‘rgatish. Imloga oid mashqlar. Kitobxonlik faoliyatini shakllantirish. O‘qish malakasi haqida tushuncha. O‘qish malakalarining sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni.

Xalqaro baholash dasturlari haqida ma’lumot. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o‘rgatish. PIRLS xalqaro tadqiqoti bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlash malakasini shakllantirish. PIRLS topshiriqlari asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish (namunaviy, konstruktiv, variativ, ijodiy mashq turlari). Boshlang‘ich sinfda epik asarlar ustida ishlash metodikasi. Har xil janrdagi asarlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Ertakni o‘qish metodikasi. Hikoya janridagi asarni o‘qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich sinfda liroepik asarlar ustida ishlash metodikasi. Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Masal janrining boshqa janrlardan farqini tushuntirish. She’r janridagi asarni o‘qitish metodikasi. Lirik she’rlar bilan tanishtirish usullari. Boshlang‘ich sinfda xalq og‘zaki ijodi ustida ishlash metodikasi. Doston, topishmoq, rivoyat, latifa, tez aytish, maqol, xalq qo‘shiqlari janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirish. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishning maqsadi va vazifalari. To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlash tamoyillari. Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari. Kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va vazifalari. Nutq va uni o‘stirish tushunchasi. Nutq turlari. O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar. Nutq o‘quvchilar tafakkurini o`stirishda muhim vosita. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning boshqa o‘quv predmetlar bilan bog‘liqligi. Bog‘lanishli nutq va uni o‘stirish vazifalari. Bog‘lanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bog‘lanishli nutqni o‘stirishga doir mashq turlari. Bog‘lanishli nutqqa oid ko‘nikmalar. Og‘zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon. Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo‘yilgan talablar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari. Og‘zaki va yozma insho turlari. O‘quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to‘g‘rilash va oldini olish yo‘llari. Nutq malakasini baholash mazmuni, shakli, vositalari va mezonlari. Onatili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘qib va eshitib tushunish, og‘zaki, yozma nutq, malakasini baholash mazmuni, shakli, vositalari va mezonlari. O‘quvchilar bilimini nazorat qilishda qo‘llaniladigan texnologiyalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar bilimini nazorat qilishda qo‘llaniladigan texnologiyalar.

Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi: To‘plamlar. To‘plam tushunchasi. To‘plamning elementlari. Bo‘sh to‘plam. Chekli va cheksiz to‘plamlarga misollar. To‘plamlarning berilish usullari. Teng to‘plamlar. To‘plam osti. Universal to‘plam. Eyler-Venn diagrammalari. To‘plamlar va ular ustida amallar. To‘lamlarning kesishmasi, birlashmasi, ikki to‘plamning ayirmasi, universal to‘plamgacha to‘ldiruvchi to‘plam. To‘plamlarning dekart ko‘paytmasi. To‘plamlar ustidagi amallarning xossalari. To‘plamlarni sinflarga ajratish. To‘plamlarni o‘zaro kesishmaydigan to‘plam ostilariga (sinflarga) ajratish tushunchasi. To‘plamlarni bitta, ikkita va uchta xossaga ko‘ra sinflarga ajratish.

Moslik va uning turlari. Moslik va munosabatlar. Ikkita to‘plam elementlari orasidagi moslik. Moslikning grafi va grafigi. To‘plamni akslantirish. To‘plamni to‘plamga o‘zaro bir qiymatli akslantirish, Teng quvvatli to‘plamlar. Gadjetlar. Binar munosabatlar va ularning xossalari. To‘plamdagi munosabat uning xossalari: Refleksiv, antirefleksiv, simmetrik, assimmetrik, antisimmetrik va tranzitiv. Kombinatorika elementlari. Kombinatorika masalalari. Yig‘indi va ko‘paytma qoidasi. O‘rinlashtirishlar va o‘rin almashtirishlar. Takrorlanadigan va takrorlanmaydigan o‘rinlashtirishlar hamda o‘rin almashtirishlar. Gruppalashlar. Takrorlanmaydigan gruppalashlar. Chekli to‘plamlarning to‘plam ostilari soni. Mantiq elementlari. Matematik tushuncha. Tushunchaning hajmi va mazmuni. Tushunchani ta’riflash usullari va ularga misollar. Mulohazalar va ularning berilish usullari. Mulohaza. Mulohazaning inkori. Kon’yunksiya va diz’yunksiya.

Mulohazalar va ular ustida amallar. Predikatlar. Implikatsiya va ekvivalensiya.Predikatlar. Predikatning inkori. Implikatsiya va ekvivalensiya.

Nomanfiy butun sonlar to‘plami. Natural son va nol tushunchasining vujudga kelishi haqida qisqacha tarixiy ma’lumot. Nomanfiy butun sonlar to‘plamini tuzishdagi har xil yondashuvlar. Nomanfiy butun sonlar to‘plamini to‘plamlar nazariyasi asosida qurish: Natural son va nol tushunchasi. Nomanfiy butun sonlar to‘plamida “teng”, “kichik” va “katta” munosabatlari. Yig‘indi va ayirmaning ta’rifi, uning mavjudligi va yagonaligi. Yig‘indining ta’rifi, uning mavjudligi va yagonaligi. Qo‘shish qonunlari. Ayirmaning ta’rifi, uning mavjudligi va yagonaligi. Yig‘indidan sonni va sondan yig'indini ayirish qoidalarining to‘plamlar nazariyasi bo‘yicha ma’nosi.

Ko‘paytmaning ta’rifi, uning mavjudligi va yagonali. Ko‘paytmaning ta’rifi, uning mavjudligi va yagonaligi. Ko‘paytirish qonunlari. Ko‘paytmaning yig‘indi orqali ta’rifi. Nomanfiy butun sonni natural songa bo‘lishning ta’rifi, u mavjudligi va yagonaligi. Nomanfiy butun sonni natural songa bo‘lishning ta'rifi, uning mavjudligi va yagonaligi. Yig‘indini va ko‘paytmani songa bo‘lish qoydalarining to‘plamlar nazariyasi bo‘yicha ma’nosi. Peano aksiomalari. Qo‘shish qonunlari. Nomanfiy butun sonlarni qo‘shish amalining aksiomatik ta’rifi.

Ko‘paytirish qonunlari. Ayirish va bo‘lishning ta’rifi. Nomanfiy butun sonlarni ko‘paytirish amalining aksiomatik ta’rifi Ayirish va bo‘lishning ta’rifi. Nolga bo‘lishning mumkin emasligi. Qoldiqlarni bo‘lish. Nomanfiy butun sonlar to‘plamining xossalari. Nomanfiy butun sonlar to‘plamining xossalari. Natural sonlar qatori kesmasi va chekli to‘plam elementlari soni tushunchasi. Tartib va sanoq natural sonlari. Natural son miqdorlarni o‘lchash natijasi sifatida. Natural son miqdorlarni o‘lchash natijasi sifatida. Natural son kesma o‘lchami sifatida. Kesmalarning o‘lchami sifatida qaralgan sonlar ustidagi arifmetik amallarning ta’rifi. Sanoq sistemalari. Sanoq sistemasi tushunchasi, Pozitsion va nopozitsion sanoq sistemalari. O‘nli pozitsion sanoq sistemasini targ‘ib qilishda M.Xorazmiyning roli. O‘nli pozitsion sanoq sistemasida sonlarning yozilishi va o‘qilishi. O‘nli sanoq sistemasida ustidagi arifmetik amallar. O‘nli sanoq sistemasida nomanfiy butun sonlar ustidagi arifmetik amallar.

O‘ndan farqli pozitsion sanoq sistemalari. O‘ndan farqli pozitsion sanoq sistemalari: sonlarning yozilishi, arifmetik amallar, bir sanoq sistemasida yozilgan sonni boshqa sanoq sistemasidagi yozuvga o‘tkazish. Ikkilik sanoq sistemasining tadbiqi. Sonlarning bo‘linishi. Nomanfiy butun sonlar yig‘indisi va ko‘paytmasining bo‘linishi. Arifmetikaning asosiy teoremasi. Sonlarning bo‘linishi. Nomanfiy butun sonlar to‘plamida bo‘linish munosabatining ta’rifi va xossalari. Bo‘luvchilar va karralilar. 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 11, 25 ga bo‘linish alomatlari. Nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallar bajarishning og‘zaki usullari. Arifmetikaning asosiy teoremasi. Sonlarni tub ko‘paytuvchilarga ajratish. Sonlarni kanonik ko‘rinishda yozilishi. Tub va murakkab sonlar. Tub va murakkab sonlar. Eratosfen g‘alviri. Tub sonlar to‘plamining cheksizligi. Sonlarning eng kichik umumiy karralisi va eng katta umumiy bo‘luvchisi. Sonlarning eng kichik umumiy karralisi va eng katta umumiy bo‘luvchisini topish. Ularning asosiy

xossalari. Berilgan sonlarning eng katta umumiy bo`luvchisi va eng kichik umumiy karralisini topish algoritmi. Son tushunchasini kengaytirish masalasi. Butun sonlar: Butun manfiy sonlar. Kasr va manfiy son tushunchasini vujudga kelishi haqida qisqacha tarixiy ma’lumotlar. Butun sonlar: Butun manfiy sonlar. Butun sonlar to‘plamining xossalari va ularning geometrik interpretasiyasi.

Ratsional sonlar. Ulush tushunchasi. Kasr tushunchasi. Butunning ulushi, ulushlarga ko‘ra butunni topish. Ratsional sonlar. Ratsional sonlar ustida arifmetik amallar. Qo‘shish va ko‘paytirish qonunlari. Ratsional sonlar to‘plamining xossalari. Ratsional sonlarning surati va maxrajini bir xil songa ko‘paytirish, noldan farqli songa bo‘lish. O‘nli kasrlar va ular ustida arifmetik amallar. Haqiqiy sonlar. Haqiqiy sonlar to‘plamining xossalari. Haqiqiy sonlar ustida arifmetik amallar. Davriy bo‘lmagan cheksiz o‘nli kasr. Haqiqiy sonlar ustida arifmetik amallar. Qo‘shish qonunlari. Ko‘paytirish qonunlari. Haqiqiy sonlar to‘plamining xossalari.

Kompleks sonlar. Kompleks sonlar. Mavhum son tushunchasi. Kompleks sonlar ustida arifmetik amallar. Kompleks sonning geometrik ma’nosi. Kompleks sonlar to‘plamining xossalari. Kompleks sonlarning trigonometrik shakli. Kompleks sonlarning trigonometrik shakli, ular ustida amallar. Geometriya elementlari. Geometriyaning vujudga kelishi haqida qisqacha tarixiy ma’lumot. Geometrik tushunchalar sstemasi va ularga oid topshiriqlarni yechishni o‘rgatish. Geometrik figuralar ularning ta’rifi, xossalari va alomatlari. Ko‘pyoqlilar va aylanma jismlar. Ko‘pyoqlilar haqida Eyler teoremasi. Prizma, to‘g‘ri burchakli parallelepiped, (Kuboid), piramida. Aylanma jismlar. silindr, konus, shar. Fazoviy figuralarni tekislikda tasvirlash. Geometrik masalalar yechish metodlari haqida. Geometrik masalalarning turlari, o‘lchash bilan bog‘liq amaliy masalalar, hisoblashga oid masalalar, isbotlashga doir masalalar va yasashga doir masalalar. Miqdorlar va ularni o‘lchash. Miqdor tushunchasi va uning turlari. Skalyar miqdorlarning asosiy xossalari. Miqdorlarni olchash tushunchasi. Kesma uzunligi va uning asosiy xossalari. Kesma uzunligi va uning asosiy xossalari. Kesma uzunligini o‘lchash. Kesmani teng bo‘laklarga bo‘lish. Uzunlikning standart birliklari va ular orasidagi munosabatlar.

Figuralarning yuzi. Figuralar yuzini o‘lchash usullari. Figuralarning yuzi. Figuralar yuzini o‘lchash usullari. Tengdosh va teng figuralardan tashkil topgan figuralar. To‘g‘ri to‘rtburchak va boshqa figuralarning yuzini topish. To‘g‘ri to`rtburchakning perimetri. Muntazam shakllarning perimetri. Nostandart shakllarning perimetri Yuzning xossalari. Yuzni topishning nostandart usullari. Nostandart shakllarning yuzi.

Jismning massasi va uni o‘Ichash. Jismning massasi tushunchasi. Massaning xossalari. Jismning massasini o‘lchash o‘rgatish. Jismning hajmi va uni o‘lchash. Fazoviy figuralarning xajmini topish: Piramida, prizma, (Kuboid), konus, silindr, shar. Hajm birliklari. Hajm birliklari va ular orasidagi bog‘lanishlar. Vaqt oraliqlari va ularni o‘lchash. Vaqt oraliqlari va ularni o‘lchash. Boshlang‘ich matematika kursida ko‘riladigan boshqa miqdorlar: baho(narx), vaqt, tezlik, yo‘l. Ularning o‘lchov birliklari va ular orasidagi bog‘lanishlar. Matnli masalalar, Matnli

masalalar yechish metodlari. Matnli masala tushunchasi, Matnli masalalar turlari, matnli masalalar jarayonini modellashtirish. Foizlar (%). Foizlar bilan hisoblanadigan masalalar. Matnli masalalar yechish metodlari. Nostandart masalalar, Mantiqiy masalalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning umumiy metodikasi fan sifatida. Matematik-metodik tizimning asosiy komponentlari: o‘qitish maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi maqsadi va vazifalari. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasining mazmuni va tuzilishi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodlari. Matematik tushunchalar haqida tasavvur hosil qilishda nazariy ma’lumotlarning o‘rni. Boshlang‘ich sinf matematikasi va matematika o‘qitishning bosqichlari orasidagi uzviylik. O‘quvchilarning o‘quv yili oxiridagi bilim, ko‘nikma hamda malakalariga qo‘yilgan kompelensiya talablari asosida nazorat tahlili. Metod tushunchasi. Uning turlari va tasnili. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni tashkil qilish shakllari. Boshlang‘ich sinf matersatikadan darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish. Ta’limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to‘garak, matematika kechasi va boshqa turlari); o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilar bilan ishlash, o‘quvchilar uy vazifalari, uni tashkil qilishga qo‘yilgan talablar, xatolar ustida ishlash, o‘quvchilar bilimini tekshirish metodlari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika darslarida yosh xususiyatlariga mos tarixiy ma’lumotlarni o‘zlashtirishi mazmuni.

Ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish. Oz komplektli maktablarda matematika o‘qitish xususiyatlari. Mantiqiy tushunchalar. Ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish. Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash. Matematikani chuqurlashtirib o‘qitish xususiyatlari. Oz komplektli maktablarda matematika o‘qitishni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonda oz komplektli maktablarning mavjudlik holati. “Shakli bir xil”, “shakli har xil” tushunchalari. “Barchasi”, “ayrimlari”, “…dan tashqari barchasi”, “har qanday”, “ixtiyoriy”, “...lardan biri”, “barchasidan biri” va ularning ma’nolari. Matematik xossalar.

Boshlang‘ich sinflarda nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish metodikasining umumiy masalalari. 10 va 100 ichida nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish metodikasi. O‘quvchilarni maktabgacha bo‘lgan davrda matematik tayyorgarligi darajasini aniqlash va ularni tartibga solish. Nomerlashga o‘rgatishga tayyorgarlik. Son va sanoq tushunchasini shakllantirish bosqichlari. O‘nli sanoq sistemasi xususiyatlari va uning nomerlashga asos qilib olinishi. Konsentrlar bo‘yicha nomerlashga o‘rgatish metodi. Darsni tashkil qilish, ko‘rgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalanish. Raqamlashga o‘rgatishda matematik diktantning o‘rni. Boshlang‘ich sinflarda 10 va 100 ichida nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish metodikasi. 1000 ichida va ko‘p xonali nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish metodikasi. Boshlang‘ich sinflarda 1000 va ko‘p xonali nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o‘rgatish

metodikasi. Boshlang‘ich sinflarda asosiy miqdorlar va ularni o‘lchov birliklarini o‘rgatish metodikasi. Uzunlik va yuza o‘lchov birliklari. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan asosiy miqdorlar: uzunlik, massa, narx, baho, vaqt, masofa, tezlik. Miqdorlarni o‘lchash, o‘lchov birliklarining turlari orasidagi bog‘liqliklar va ular ustida amallar bajarishga o‘rgatish metodikasi. Uzunlik va yuza o`lchov birliklari. Boshlang‘ich sinflarda massa va hajm (sig‘im) o‘lchov birliklarini o‘rgatish metodikasi. Massa va sig‘im o‘lchov birliklari. Miqdorlarni olchash, o‘lchov birliklarining turlari orasidagi bog‘liqliklar va ular ustida amallar bajarishga o‘rgatish metodikasi. Massa va hajm o‘lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar. Massa o‘lchov birliklari gramm(g), kilogramm(kg) va ular orasidagi bog‘lanishlar. Suyuqliklar hajmlarini va jismlarning vaznini gramm(g), kilogram(kg), tonna(t) va litr (L) birliklardan foydalanib o‘Ichash va hisoblash.

Boshlang‘ich sinflarda vaqt o‘lchov birliklarini o‘rgatish metodikasi. Vaqt o‘lchov birliklari. Vaqt o‘lchov birliklari. Miqdorlarni o‘lchash, o‘lchov birliklarining turlari orasidagi bog‘liqliklar va ular ustida amallar bajarishga o‘rgatish metodikasi. Vaqt birliklari: asr, yil, oy, sutka, soat, minut (daqiqa), sekund (soniya) va ular orasidagi munosabatlar (1 minut (min) = 60 sekund (s), 1 soat (h) = 60 minut (min), 1 sutka = 24 soat (h), 1 yil = 12 oy, 1 asr = 100 yil). Soat bo‘yicha vaqtni minutgacha aniqlash. Tushdan oldin va tushdan keyingi vaqt. Vaqtga doir misol va masalalar. Vaqtni rejalashtirish (kun tartibi). 10 ichida nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. O‘nlik konsentrida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Qo‘shish va ayirish amallari ma'nosini ochib berish. 100 ichida nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Yuzlik konsentrida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Ikkinchi o‘nlikda qo‘shish va ayirish amallarini bajarish metodikasi. O‘quvchilarning og`zaki va yozma hisoblash malakalarini shakllantirish. Og‘zaki hisoblash texnologiyalari.

Ko‘paytirish va bo‘lish metodikasi. Ko‘paytirish va bo‘lish amali ma’nosini ochib berish hamda uni bosqichlab konsentrlarda bajarilishini o‘rgatish. Qoldiqli bo‘lish. Qo‘shish va ko‘paytirish jadvallari va ularga mos ayirish va bo‘lish hollarini o‘rgatish. 1000 ichida nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Qo‘shish va ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amali ma’nosini ochib berish hamda uni bosqichlab konsentrlarda bajarilishini o‘rgatish. Qoldiqli bo‘lish. Yozma hisoblash algoritmini o‘rgatish. Hisoblash malakalarini tekshirish. Xatolarni aniqlash v ani bartaraf qilish yo‘llari. Og‘zaki va yozma hisoblashga doir didaktik (o‘yinlar) topshiriqlar to‘plamini tuzish. O‘rta arifmetikni hisoblash. Ko‘p xonali nomanfiy butun sonlar ustida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Ko‘p xonali konsentrida arifmetik amallarni o‘rgatish metodikasi. Algebrik materiallarni o‘qitish metodikasi. Tenglama va uni yechishga o‘rgatish. Boshlang' ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatish metodikasining umumiy masalalari. Son va ifoda tushunchasi. Sonli va harfiy ifoda. Harfli ifodalar. a+b, a-b, a b, a:b kabi ifodalar. Harfli ifodalarning qiymatini berilgan sonlar orgali topish.O‘zgaruvchi qatnashgan ifoda. Tenglik va tengsizlik. Sonli tenglik, tengsizlik va uni yechishga o‘rgatish

metodikasi. Tenglama. Tenglamalarni yechish metodikasi. Tenglamalarni yechishga o‘rgatish usullari. Tenglik va tengsizliklarni o‘rgatish metodikasi bilan tanishtirish. Sodda va murakkab tenglamalarni o‘rgatish metodikasi.

Geometrik materiallarni o‘rgatish metodikasi. Boshlang‘ich sinflarda geometriya elementlarini o‘rgatish metodikasining umumiy masalalari. Nuqta, kesma, kesma va uning uzunligi. Berilgan uzunlikda kesma chizish. Kesma xossalari, to‘g‘ri chiziq, siniq chiziq uzunligi, egri chiziq, ko‘pburchak tushunchasi haqida tasavvurni shakllantirish va ularni chizish, ayrim xossalari bilan tanishtirish metodikasi. Sonlar nuri modelini tuzish. Sonlar nurida sonlarning joylashuvi. Burchak va ularning turlari. Nurning nuqtalari orasidagi masofa. Nuqtaning koordinata nuri bo‘ylab harakati. Parallelepiped va kub. To‘g‘ri burchakli parallelepiped (Kuboid) – elementlari – uchlari, yoqlari va qirralari. Chizmada to‘g‘ri burchakli parallelepiped (Kuboid)ning tasviri va yoyilmasi.

Boshlang‘ich sinflarda perimetr va yuza tushunchalarini o‘rgatish metodikasi. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri. Ko‘pburchak perimetri. Muntazam shakllarning perimetri. Nostandart shakllarning perimetri. Yuznin; xossalari, Yuzni topishning nostandart usullari. Nostandart shakllarning yuzi. Ko‘pburchaklar perimetri hamda yuzasini hisoblash, yuza o‘lchov birliklari va ular orasidagi bog`lanishga doir masalalar yechish. To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadratning perimetrini, yuzaga doir masalalar yechishga o‘rgatish. Yuzlarni formula yordamida hisoblashga doir masalalar. Figuralarni farqlay olish, qismlarga bo‘lish, qismlardan figuralar hosil qiliish. Ko‘pyoq. To‘g‘ri burchakli parallelepiped. Fazoviy shakllar. Kub va uning elementlari. Ko‘pyoq modellari. Koordinata burchagi. Simmetriya. Nuqta koordinatasi. Shkala tushunchasi, shkala va sonlar o‘qi bilan ishlash. Burchak turlari, burchaklarni o‘lchash. Yoyiq burchak. Burchak gradusi. 30, 45, 60, 90 gradusli burchaklarni transportir yordamida o‘lchash. Soat millari. Shakllarni burish. Sonli nur va shkala. Doira va aylana. Aylana markazi, radiusi, diametri. Transportir bilan ishlash. Parallel va perpendikulyar to‘g‘ri chiziqlar. Boshlang‘ich sinflarda simmetriya tushunchasi bilan tanishish. (simmetriya o‘qlari, markaziy simmetriya) metodikasi. Simmetrik shakllar. Simmetriya o‘qlarini topish.

Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Kasrlar ustida arifmetik amallar. Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasining umumiy masalalari. Ulush va kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Kasrlarni taqqoslash. Ulush. Butunning ulushini topish. Ulushga ko‘ra butunni topish. Maxraji 10 dan oshmagan kasrlarni taqqoslash. Maxrajlari bir xil bo‘lgan kasrlarni qo‘shish va ayirishning ma'nosi. Sonning kasr qismi va kasrga ko‘ra) sonni topishga doir masalalar yechish, Kasr, Maxraji 2, 4, 8 bo‘lgan kasrlar tushunchasi. Maxraji 2, 4, 8 bo‘lgan teng kasrlar. Maxraji 3, 4, 5, 6, 8, 12 bo‘lgan kasrlarni yarim ulush bilan taqqoslash. O‘nli kasrlar. O‘nli kasr. O‘nli kasrni to‘g‘ri kasr ko‘rinishda ifodalash. O‘nli kasrlar ustida arifmetik amallar. O‘nli kasrlarni taqqoslash. Arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi. Sodda masalalar. Murakkab masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi. Masala yechimini tekshirish usullari. Sodda va murakkab masalalar, Masala tuzish va uni yechish. Masala yechishga o‘rgatish

bosqichlari va uning mantiqiy asosi. Masalalar turlari va ular ustida ijodiy ishlash. Konsentrlar (10, 100, 1000 va ko‘p xonali sonlar) bo‘yicha masalalar yechish ustida ishlash. Masala yechishga o‘rgatishning umumiy usullari ustida ishlash. Narx-navo, massa, vaqt, yo‘l, masofa kattaliklariga oid amaliy masalalar.

